

## DIREKTOR O'RINBOSARLARIDA MIDIERGONOMIK KOMPATENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

**Eraliyev Xalimjon Alimbekovich**

Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'quv metodik ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari

E-mail: [eraliyev2020@gmail.com](mailto:eraliyev2020@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Hozirgi zamон mакtab rahbarining midiergonomik kompetentligini takomillashtirishda midiergonomik bilim, ko'nikma va malakalarning dolzabligi asoslangan. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarlarining midiergonomik kompetentligini takomillashtirish jarayoni mazmuni va amalga oshirish texnologik tizimi tarkibiga kiruvchi komponentlarni taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** midiergonomik yondashuv, midiergonomik kompetentlik, ergonomik tahlim muhiti.

## СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МИДЕРГОНОМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ЗАМЕСТИЛЕЙ ДИРЕКТОРА

**Ералиев Халимжон Алимбекович**

Национальный центр подготовки учителей по новым методикам Наманганской области, заместитель директора по учебно-методической работе

E-mail: [Eraliev2020@gmail.com](mailto:Eraliev2020@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

Потребность в мидиергономических знаниях, умениях и квалификации базируется на совершенствовании мидиергономической компетентности заместителей директора по учебной работе общеобразовательной школы и совершенствовании мидиергономической компетентности руководителя современной школы. Представлено содержание процесса повышения мидиергономической компетентности заместителей директора по учебной работе и компоненты, входящие в технологическую систему реализации.

**Ключевые слова:** мидиергономический подход, мидиергономическая компетентность, эргономическая среда обучения.

## CONTENT AND ESSENCE OF FORMATION OF MIDERGONOMIC COMPETENCE IN DEPUTY DIRECTORS

**Eraliyev Khalimjon Alimbekovich**

Namangan Region National Center for Training Teachers in New Methodologies,  
Deputy Director of Educational Methodological Affairs

Email: [eraliyev2020@gmail.com](mailto:eraliyev2020@gmail.com)

### ABSTRACT

The need for mid-ergonomic knowledge, skills and qualifications is based on improving the mid-ergonomic competence of deputy directors for academic work in a secondary school and improving the mid-ergonomic competence of the head of a modern school. The content of the process of increasing the mid-ergonomic competence of deputy directors for academic work and the components included in the technological implementation system are presented.

**Keywords:** midiergonomic approach, midiergonomic competence, ergonomic learning environment.

Bizning zamonamizga xos xususiyat bu shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaga doimiy qiziqishdir. Qulaylik hayot uchun eng zarur sharoit sifatida tushuniladi. Ta’lim jarayonining qulay sharoitlari kontseptsiyasi, avvalambor, maktabda o‘quvchi shaxsining aqliy va axloqiy fazilatlarini, shuningdek, uning jismoniy sog‘lig‘ini ta’minlaydigan maksimal darajada samarali pedagogik sharoitlarni yaratishni anglatadi. Insonning faol hayotining tarkibiy qismi “funktsional qulaylik”. Bu “faol ishlaydigan (ishlaydigan) odamning maqbul funktsional holati, u uchun qulay sharoitlar, faoliyat vositalari, uning maqsadi, jarayonlari va mazmuni to‘g‘risida guvohlik beradi”. U o‘zini ijobiy xissiy reaktsiyalar shaklida va o‘quvchiga taqdim etilayotgan ob’yekt muhitining funktsional, aqliy va individual imkoniyatlariga mosligi mezoni sifatida namoyon qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi (2020) Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan mohiyatini, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, inson hayoti, sog‘lig‘i va shaxsning erkin rivojlanishi, har qanday maktab islohotining maqsadi nimada bo‘lishi kerakligi, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonining qulay sharoitlarini ta’minlash o‘z aksini topgan.

Ta’lim muassasasi o‘quv dasturlarini assimilyatsiya qilish, o‘qituvchi va o‘quvchilar shaxsiyatining umumiyl madaniyatini shakllantirish, ularni jamiyat

hayotiga moslashishi, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning sog‘lig‘ini saqlash uchun sharoit yaratishga chaqiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarida midiergonomik kompetentlikning shakllanganlik darajasi o‘quv xonalarida ta’lim muhiti, mehnat gigienasi, dasturiy mahsulotlar tizimi interfeysini loyihalash ko‘nikmasining kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishi hamda o‘z xatti-xarakatlari tarkibiga odat sifatida qabul qilinishini tushunamiz.

O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va midiergonomik yondashuv asosida innovatsion faoliyatga undovchi va mazkur yo‘nalishdagi irodaviy xatti-harakatlarini ta’minlovchi asoslar to‘rtta asosiy guruhga ajratiladi:

- birinchidan, bu yangilik kiritish natijasida vujudga keladigan, hurmat-e’tibor, vakolat va mavqeい bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan shaxsiy qiziqishlar;
- ikkinchidan, tashkiliy tizimning samarali rivojlanishiga mos ravishda o‘zini-o‘zi kasbiy rivojlantirishga intilish;
- uchinchidan, o‘qituvchining ta’limiy muhitda innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglashi;
- to‘rtinchidan, pedagogik jamoda midiergonomika, ta’lim muhitining mazmun va mohiyatini tushunish va mantiqan zaruriyatini qabul qilish.

O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarining midiergonomik kompetentligini takomillashtirishda malaka oshirish jarayoni ishtirokchilarining asosiy vazifalari, midiergonomika mavzulari bo‘yicha dasturiy-metodik mahsulotlarini ishlab chiqish, ularning ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ta’lim-tarbiya jarayonlarida midiergonomik talablarga muvofiq faoliyatning samaradorligini ta’minalashning asosiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- ta’lim jarayonida midiergonomik talablarga muvofiq yangilik kiritishning dolzarbli muammolarni uzil-kesil hal qilish va strategik rivojlanishni ta’minalashning asosiy omillari sifatida belgilanishi;
- tanlangan innovatsion ta’lim vositalarining malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayoni imkoniyatlariga mos kelishi;
- innovatsiyalarning to‘la ilmiy asoslanganligi;
- innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimliligi;
- yangilik yaratuvchi va undan foydalanuvchilarning shaxsiy-professional xususiyatlarini hisobga olish va innovatsiyalarning ahamiyatini anglash, har bir sub’yektning yuqori darajadagi mas’uliyati hamda javobgarligini ifodalanishi;
- midiergonomik yondashuv va ergonomik tamoyillar, ta’lim jarayonining mazmunida, pedagogik texnologiyalarda, ta’lim dasturi va kontseptsiyasida o‘zgartirishlar hamda rivojlanish tamoyillarining o‘z ifodasini topishi;

- midiergonomik yondashuv metodologiyasining innovatsion jarayonlarni tashkil etish shartlari va tamoyillariga mos kelishi.

Bu jarayonlar ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning ob'yektiv o'zgarishlari bilan bog'liq holda malaka oshirish jarayonida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rnbosarlari midiergonomik kompetentligini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojini belgilaydi.

Midiergonomik kompetentlik – o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rnbosarlarining o'rganayotgan ergonomik materiallaridan va olingan axborotlardan kasbiy faoliyatida oqilona foydalana olish, o'quv xonalarida ta'lim muhiti, mehnat gigienasi, dasturiy mahsulotlar tizimi interfeysi loyihalash, o'quv xonalarida ta'lim muhiti, mehnat gigienasi, dasturiy mahsulotlar tizimi interfeysi tahlil qilish, xavfsiz va qulay ta'lim muhitini yaratish, mакtabda qulay va xavfsiz bilim olish sharoitini yaratish uchun mas'uliyatli munosabatda bo'lish layoqati hisoblanadi. Bunga quyidagilar kiradi: sog'liq holati va charchoq darajasi; motivlarning kuchi; aqliy va jismoniy faoliyat miqdori; mashqlar va tashqi muhitni tashkil etish; o'rganish qobiliyati; irodaning xususiyatlari va shaxsning ushbu faoliyat turiga tayyorgarlik darajasi; ish(o'qish) paytida odamning kayfiyati va xissiy holati; tarbiyaviy ish va dam olishni o'zgartirish rejimi; muayyan faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rnbosarlarining midiergonomik tayyorgarligini amalga oshirish maqsadida "Pedagogik ergonomika" o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'qitishning texnik vositalari, didaktik vositalari, pedagogik texnologiyalari hamda maktabdagagi ta'lim va tarbiya muhiti bilan bog'liq holda har tomonlama o'rganadigan ilmiy fan sohasi ekanligi<sup>1</sup>, shuningdek "Pedagogik ergonomika" – xavfsiz va qulay ta'lim muhitini tashkil etish maqsadida o'qitish va o'zlashtirish jarayonini inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda yaratish, tatbiq etish, aniqlash, o'qituvchi va o'quvchi mehnatini yengillashtirish, ruhiy zo'riqish holatlarini kamaytirish, ta'lim tizimi muammolarini bartaraf etishni o'rganuvchi ta'lim sohasi ekanligi o'rganildi<sup>2</sup>.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rnbosarlari uchun "Ta'limda boshqaruv" moduli nazariy va amaliy mashg'ulotlaridan mavzularni tanlashda pedagogik ergonomika mazmunining integrativ masalalarini chuqurroq o'rganilishini ta'minlash maqsadida ergonomik fanlararo yondashuvga asoslaniladi. Asosiy e'tibor "Ergonomika", "Pedagogik ergonomika", "Ta'limning ergonomik sharoitlari" kabi tayanch iboralarga va pedagogik ergonomikaning fan sifatida rivojlanish tarixi, ta'lim

<sup>1</sup> Окулова Л.П. Педагогическая эргономика: монография. – М. Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2011. – 200 с.

<sup>2</sup> Абдуллаев С.Х. Эргономика, малака ошириш тизимининг эргономик муаммолари. МГУ.Филиал МГУ имени М.В.Ломоносова в городе Ташкенте. Наука, просвещение и культура в системе непрерывного образования: проблемы и решения по реализации государственной программы. «Год внимания и заботы о старшем поколении» Материалы научно-практической конференции. Част 1. Стр 48-54. Ташкент 2015г.

muhitini ergonomik loyihalash bosqichlariga, shuningdek Xalq ta'limi vaziri tamonidan 2004-yil 15-mayda tasdiqlangan "umumta'lim maktablarini jihozlash me'yorlari"da ko'rsatilgan o'qitish vositalari, jihoz va uskunalar, xonalarning nomlanishini va ulardan foydalanish usullari, "0375-20 san QvaM" raqamli O'zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, normalari va gigienik normativlarini, shuningdek ta'lim muassasalaridagi mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalar, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa inventarlardan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to'g'risidagi "yo'riqnomalar" talablariga qaratildi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining midiergonomik kompetentligi darajasiga mos ravishda mактабда ta'lim muhiti o'zgaradi. O'quv faoliyati uchun qulay bo'lgan zamonaviy maktab, o'qituvchi va o'quvchining qulay ish joyi, samarali va xavfsiz o'quv muhitini yaratish muammoi umumta'lim maktablari direktor o'rinnbosarlarining ergonomik kompetentligini takomillashtirish asosida hal qilinishi mumkinligi, bu albatta ergonomik zamonaviy ta'lim muhiti yaratish orqali amalga oshiriladi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining midiergonomik kompetentligi shakllangan bo'lsa, demak, zamonaviy maktabda (ichki dizayn, o'qituvchi va o'quvchilarining ish joylari, o'quv xonalari, issitilishi, mebel, yorug'lik, tartib, dars jadvali va boshqalar) midiergonomik talablarni to'g'ri tashkil etish va qat'iy rioya qilishni kasbiy faoliyatida odat sifatida amalga oshiradi.

Ushbu tendentsiya sharoitida zamonaviy maktab "o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan" ta'lim tizimiga o'tishi kerak. Binobarin, zamonaviy maktabning vazifasi erkin, madaniy, bilimli, ma'naviy va jismoniy sog'lom, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish uchun qulay, xavfsiz sharoitlarni yaratishdir.

Bizning fikrimizcha, o'quvchilar va o'qituvchilarining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini(sog'lig'ini) ta'minlagan holda zamonaviy maktabning salbiy tendentsiyalarini yengishga yordam beradigan usul ta'limda midiergonomikanı qo'llanishidir.

Pedagogik jarayonlarda midiergonomikaning maqsadlariga asoslangan midiergonomik yondashuv o'quv jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlashi bilan birga, ta'lim jarayonida shaxsning uyg'un rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Zamonaviy ta'lim siyosati har kimga ta'limni tanlash huquqini, hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish, o'z faoliyatini yetarli darajada tashkil etish qobiliyatini o'z ichiga olgan shaxs manfaatlarini hurmat qilishni e'lon qiladi. Afsuski, zamonaviy maktab hali bunday imkoniyatlarni yaratishga tayyor emas.

Maktabni rivojlantirishning eng muhim tamoyilini amalga oshirish uchun ta'lim paradigmasining o'zgarishi haqiqatini tuzatish yetarli emas. Ta'lim makonining holatini belgilaydigan barcha tarkibiy qismlarni o'zgartirish zarur.

Moddiy baza deganda o‘quv qurollaridan iborat kompleks (ob’ektlar va ularning tasvirlari, ta’riflari, texnik axborot vositalari); jihozlarga qarab turish va ularni ta’mirlash vositalari, o‘quv jihozlaridan foydalanishga yordam qiluvchi mebel va moslamalar, o‘quv tarbiya jarayonini ilmiy tashkil etish va ularni boshqarishning maxsus vositalari tushiniladi:

- o‘quv xonasi uchun ajratilgan joyning mehnat muolajalarini amalga oshirish bo‘yicha turli tadbirlar o‘tkazishga yaroqliligi;
- axborot materiallarining (ob’ektlar tasviri va ta’rifi) mashg‘ulotlar tematikasi va o‘quvchilar qiziqishlariga muvofiq kelishi;
- axborot materiallarida, ayniqsa o‘quv ustaxonasining midiergonomikaga oid ekspozitsiyasi va boshqa ko‘rgazmali, vositalarda, hozirgi bosqichda midiergonomik kompetentlikning asosiy tarbiyaviy yo‘nalishi bitiruvchilarni xalq xo‘jaligining hal qiluvchi sohalarida mehnatga tayyorlashning izchil ifodalanganligi;
- o‘quv xonasi sahni, uning jihozlaridan oqilona foydalanish;
- o‘quv xonasida ishning xilma-xil metodlari va shakllaridan keng va bemalol foydalanish mumkinligi;
- hujjatlar va qo‘llanmalar to‘g‘ri yig‘ib, tartibga keltirib saqlanayotganligi;
- o‘quv xonasi interyerining estetik talablarga mos kelishi;
- o‘quv qurollarini, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, tajriba materiallari, o‘quvchilarning eng yaxshi ishlarini namoyish etadigan moslamalar;
- ta’lim va tarbiyaning texnik vositalari apparatlari;
- o‘quv ko‘rgazmali qurollar, ularga quyidagilar kirishi mumkin:  
Mebelni, ta’limning texnika vositalarini o‘quv xonasi interyerini bezatishning tasdiqlangan arxitektura-badiiy loyihasi yoki jihozlash rejasiga muvofiq tarzda joylashtirish va moslamalarni puxta o‘rnatish kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Абдуллаев С.Х. Ўқитувчиларнинг эргономик маданиятини ривожлантириш муҳитини ташкил этиш тизими ва технологияси // “Замонавий таълим” илмий-амалий оммабоп журнали. Тошкент, 2021.  
9-сон. Б.28-36.
2. Абдуллаев С.Х. Технологик таолим ўқитувчиларининг эргономик компетентлиги // Монография. – ГлобеЭдит ис а традемарк оф Додо Bookс Индиан Океан Лтд., мембер оф зе ОмниСкриптум С.Р.Л Публишинг гроуп стр.

А. Руссо 15, оф. 61, Чисинау-2068, Републик оф Молдова Эуропе Принтед ат: сея ласт паге, 2022, ИСБН:978-620-2-48669-9.

3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство/учебное пособие для магистратурк всех специальностей. - Т.: ТГПУ им. Низами, 2003. – 192 с.

Окулова Л.П. Педагогическая эргономика: монография. – М. Ижевск: Институт компьютернкх исследований, 2011. – 200 с.